

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati
xodimlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa
me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini o‘rganish soatlari to‘g‘risida
MA'LUMOT**

Tadbirda ma'ruzachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 8 sentyabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son Qonuni haqida tushuntirishlar berib borildi.

Qonun 6 bob, 27 moddadan iborat bo‘lib, unda umumiy qoidalar, Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar, Bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish ta'minlanishini inobatga olgan holda axborot mahsulotining aylanishiga qo‘yiladigan talablar va yakunlovchi qoidalardan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Shu bilan birga, Qonunda axborot mahsuloti, axborot mahsulotining aylanishi, axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi, axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi, bolalar, bolalarning sog‘lig‘i, bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborot va ekspert kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tilgan.

Qonunga ko‘ra, bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ushbu sohadagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

bolalar ongiga g‘ayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir ko‘rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g‘ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish;

fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, mexanizmlari va uslublarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish.

Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi vakolatli organlarga Vazirlar Mahkamasi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari kiradi.

Shuningdek, yig‘ilgan ishtirokchilar tomonidan o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha ma’ruzachi savollar berishdi.